

Developing Students' Pedagogical Culture in an Integrated Cluster Learning Environment

Muminov Shermuhammad Karimovich,

Institute for Retraining and Advanced Training of Directors and Specialists of Preschool Education Institutions,

The department of "Pedagogy and Psychology" is a senior teacher

Abstract: *This article is aimed at developing the pedagogical culture of students in the context of integrated cluster education, increasing the effectiveness of integrated lessons and teaching principles.*

Key words: *pedagogical system, theoretical and practical, coordination, blocking, innovation, process.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim omillaridan biri yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashdan iborat. Inson shaxsi haqida gap ketganda albatta ko'z o'ngimizda komillikka intilgan ma'naviy jihatdan yetuk jamiyatning taraqqiy etishiga munosib hissa qo'sha oladigan yurt ravnaqining buguni va ertasini o'ylaydigan shaxsni keltiramiz. Shu o'rinda pezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

Pedagogik madaniyat – o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatlar jarayonida zarur bo'lgan umumiy axloqiy qoidalar majmuasi, pedagogning meyoriy-ma'naviy qarashlarga asoslangan odobidir. Ma'lumki o'qituvchilarda ma'naviy – axloqiy, xususan, pedagogik qiyofasini shakllantirish bo'yicha o'qituvchi - tarbiyachining olib boradigan ishlari murakkab va ko'p qirralidir.

Pedagogik madaniyat imkoniyat yaratgan pedagogik tajribalarni egallab olish orqali ko'p qirrali munosabatlar va muammolarni vujudga keltirishga yordam beradi, o'zini anglashni, o'zini takomillashtirishni ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat muammolari bo'yicha F.N.Gonobolin, N.V.Ko'zmin, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bu tadqiqotlarda pedagogik faoliyatning turli xil sifatleri va ko'rsatkichlari o'rganilgan va pedagogik faoliyat orqali o'qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyatini anglaydilar.

E.A.Grishin pedagogik madaniyatni ifoda etib, o'qituvchining quyidagi kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini ko'rsatadi: - umumiy bilimdonlik;

- o'z fanini bilish;
- pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib boorish;
- pedagogik kasbini sevish;
- odamiylik, haqiqatgo'ylik va talabchanlik;
- ko'zatuvcchanlik, e'tiborlilik va odoblilik.

V.A.Slastelin pedagogik madaniyatning integral ko'rsatkichlari deb quyidagilarni hisoblaydi:

- mutaxassislik sharafi va g'ururini his etish;
- jamiyatga xizmat qilish shakli sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi.

V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyat madaniyati tizimiga quyidagilarni kiritadi: Ijodiy individuallik- sezgi, farosat, odob, intuistiya. V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyatga ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Pedagogik mahoratga u pedagogik mahoratlilikni kiritib, uni pedagogik

madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi. Pedagogik madaniyatning muhim tashkil etuvchilari sifatida V.I.Pisarenko quyidagilarni ko'rsatadi:

- intelegentlilik;
- bilimlar doirasining kengligi;
- kasbi bo'yicha bilimlarining chuqurligi;
- ilmiy va ijtimoiy ma'lumotlar oqimida yo'l topa olish mahorati; - pedagogik faoliyatda bilm va mahoratlardan foydalana bilishi.

Pedagogik madaniyat muamolarini o'rganish. Bu tizimning quyidagi tashkiliy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkoniyat beradi.

O'qituvchining shaxsiy kasbiy pedagogik yo'nalganligi. Bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonning uning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g'oyalari orqali pedagog faoliyatni insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to'plamidan iborat bo'ladi.

Pedagogik jarayoni tashkil etishda o'qituvchining shaxsi kasbiy pedagogik yo'nalganligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

G'oyalarini (pedagogik vazifalarni keng ko'ra olishi, pedagogik fikrlashi, rivojlanishi, o'zini rivojlantirish bilan shug'ullanishi, pedagogik o'zaro aloqalarda professionalizmga erishish)

Qiziqishlari (fanga qiziqishi, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirishi, o'qituvchilarning ta'lim darajasini va umumiy ma'naviy madaniyatlarini oshirish)

Qadriyatli yo'nalishlari (yuqori bilmga ega bo'lish, tarbiyalash, o'qituvchi va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarini faollashtirish)

Bu tadqiqotlarning umumiy xulosalariga asosan, kasbiy pedagogik yo'nalganlikning muhim omili bo'lib, o'qituvchining insonparvarligi, uning o'quvchilarga oliy qadriyat sifatida munosabati, o'quvchining shaxsi, qadr-qimmatini hurmat qilish, mehribonligini do'stona talabchanligini, befarqlik kamsitish va shavqatsizlikka yo'l qo'ymasligi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatga iste'dodi asosida sabablari va maqsadlari yotadi. Sabablari pedagogning pedagogik faoliyatiga anglab etgan holda intilishi bilan ifodalanadi.

Maqsadlari - bu o'qituvchining kasbiy faoliyatida natijalarga erishishga intilishlaridir.

Shunday o'qituvchi shaxsining kasbiy pedagogik yo'nalganligi o'zida uning g'oyalarini, qiziqishlarini, qadriyatli yo'nalishlarini birlashtiradi va pedagogning shaxsiy sifatlarini moslashtirishi haqiqiy imkoniyatlarini, uning o'quv tarbiyaviy jarayon talablari kasbiy darajasini aks ettiradi. Demak yoshlar va kasb tanlash kasbiy o'zlikni anglash va kasbiy shakllanishi sharoitida kasbiy qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarning yechimini topishi lozim. Aks holda kasbiy madaniyat bosqichlari o'rtasidagi uyg'unlik yo'qoladi va mutaxassis talabga javob bermaydi. Bo'lajak o'qituvchilarda asosan yuksak pedagogik madaniyatning mavjudligi shu bilan o'lchanadiki u tinib-tinchimaydigan shaxs bo'lib doim izlanishda bo'ladi. Dars-mashg'ulotlarini bir xil usulda emas balkim har bir mavzuga mos holda turli xil metod va vositalardan foydalanishi bundan tashqari kiyinish va muloqot madaniyatini ham alohida e'tibor qaratishi zarur.

Umumiy pedagogika tizimiga bo'lgan umumiy innovasiya, uning o'quv- tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish-ko'p sonli imkoniyatlardan eng qulayin o'plab olish jarayonidir. Shunday murakkab, entamik, ko'pqirrali, nearxik, pedagogik-, pedagogika tizimida ishlash mumkin. Muqobillar, shuningdek oqim va o'quv ta'lim faoliyatini tashkiletishning maqsadli yo'llari mavjud. Lekin ulardan bittasigina aniqvaziyat uchun to'g'ri mos kelishi mumkin. Uni qidirib topish muvofiqlashtirishning asosiy vazifasidir. Bu vazifa mumkin bo'lgan muqobillarni taqqoslash va boshqa mavjud imkoniyatlarni baholash yo'libilan, hal etiladi.

Muvofiqlashtirish umumiy bo'lish mumkin emas, u faqatgina belgilab olingan masofaga nisbatan yuzaga kelishi mumkin. U faqatgina belgilab olingan masofaga nisbatan yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga pedagogika tizimini qay maqsadda muvofiqlashtirish, qay bir ko'rsatmalar qo'yilgan maqsad bilan muvofiqligi mos bo'lishiga erishish kerakligini aniq tasavur erish zarur.

Muvofiqlashtirish, nazariy va amaliy yo'nalishlarini ajrata bo'lish zarurdir. Muvofiqlashtirish tushunchasining sinonimi nazariy asosda muqobillarni hisoblash, chimalab ko'rish, taqqoslash va solishtirishdir. Muvofiqlashtirish amaliy yo'nalishda yangilik kiritish, qayta tashkil etish, qayta kurish, unga qo'yilgan masalalarni echish eng qulay holga keltirishdir.

Muvofiqlashtirish masalalarini echish asosiy o'lchov - mezonlarini tanlashda boshlanadi. Muvofiqlashtirish mezon - bu rivojlanish mumkin muqobillariga baho berish va ulardan eng yaxshisini tanlab olishni amalsam oshirish uchun mos bo'lganlaridir

Eslatib o'tish kerakki, ilgari qoidalar bo'yicha, ularni hali hech kim bekor qilgani yo'q, birinchi sinfda bola vazifalarini bajarish uchun 1 soat, ikkinchi sinfda 1,5 soat, uchinchi - to'rtinchi sinflardan 2 soat, beshinchi - oltinchi sinflarda 2,5 soat, ettinchi sinfda 3 soat, sakkizinchi - to'qqizinchi sinflarda 4 soat sarflashi kerak. Shunday qilib, o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirishning asosiy mezon - o'lchovi safatida ikki ko'rsatgich bir - biri bilan bog'liq holda qo'llaniladi.

1. Ta'lim - tarbiya va o'quvchilarning rivojlanishida o'sha sharoitlarda iloji boricha yuqori natijalarga erishish.

2. Har bir yoshdagi o'quvchilar va o'qituvchilar sinfi uy ishlarini barabarlash uchun sarflanadigan vaqtlarini o'rnatilgan normativlarga rioya qilish. Muvofiqlashtirishning metodik asosi bo'lib, pedagogik jarayonning hamma komponentlarini, o'zaro qonuniy aloqalarini birgalikda murakkab dinamik tizimlarini boshqarish, umumiy nazariyaga tayanib o'rganishni talab qiluvchi tizimli yondashish hisoblanadi. Falsafiy kategoriyalar bo'yicha muvofiqlashtirish "chegara" ga asoslanadi. U pedagogika tizimi u yoki bu tashkil etuvchilarni giperbolizatsiyalashtirish faoliyat suratini, o'qitish murakkabligini ko'tarib yoki pasaytirib yuborishda qarshi chiqadi, aynan ularni ko'rishga muvofiq chegara tanlashni talab etadi.

Pedagogika tizimini muvofiqlashtirish asosiy metodologik talablar quyidagilardan iborat:

- Muvofiqlashtirishni boshqarish tartibi butun tizimni birdek qamrab olishi.
- Optimal muqobilni tanlab olishda o'quv - tarbiya jarayoni qonuniyatlarining hamma tizimiga tayanish.
- Tizim tashkil etuvchilarning hammasini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini muntazam qayd etib borish.
- Muvofiqlashtirishni yanada yuqoriroq masalalar va ularni echishda yanada takomillashgan texnologiyani qo'llab boruvchi doimiy harakatlanuvchi innovatsion jarayon sifatida qaraladi.

Shunga e'tibor berish kerakki, bir tomondan muvofiqlashtirish pedagogik jarayonning mavjud sharoitga moslashuvini nazarda tutsa, boshqa tomondan o'zi yangi sharoit yaratib, unga pedagogik jarayon moslashishini talab qiladi. Bu yerda hech qanday qarama - qarshilik yo'q, chunki bu ikki jarayon bir biri bilan bog'liq holda davom etadi. Agar siz bugun sharoitga moslashingiz bu bizga bog'liq bo'lmagan vaziyat bilan bog'liqdir.

Lekin pedagog har doim ham ularni muvaffaqatli borishi uchun muvofiqlashtirishga intiladi. Amalda muvofiqlashtirish sinf va umuman maktab o'quvchilarini erishgan bilimlarini shuningdek tarbiyasini rivojlanganlik darajasini belgilangan ko'rsatgichlar bilan bog'olashda boshlanadi. Odatda, uni aniq belgilangan ko'rsatgich bilan baholash darajasiga pastroq bo'ladi. Biroz vaqtdan keyin natijalarni o'sishining mumkinlik darajasiga loyihalashtiriladi. So'ngra "ko'zlangan o'zgarishni ta'minlashga qaratilgan o'quv-tarbiya choralari tizimi qo'llaniladi. Bu ishlar yakunida erishilgan natijalar av jarayonlar optimal mumkin bo'lganlari bilan solishtiriladi, o'quvchi va o'qituvchi uy vazifasi va sinfdan tashqari ish olib borishga ketkazgan kuchlari normativdagisi bilan solishtiriladi va muvofiqlashtirish darajasi haqida hulosa chiqariladi.

Muvofiqlashtirish o'quv - tarbiya jarayoni qonuniyatlari va asoslaridan tabiiy kelib chiqibchi uslublar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Maktab, pedagog va o'quvchilar faoliyatining quyidagi darajalari ma'lum yetarli emas, jiddiy (og'ir, mushkul) yomon ahvol, tushunarli.

Oxirgisini ta'minlash uchun o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish.

Umumiy talaba sifatida kompleks yondashish, rejalashtirish, amaliy faoliyat choralarini tadbir etadi:

Har qanday vositaning yangiligi shaxsiy kabi vatq tushunchasida nisbiy turadi. Biror o'qituvchi uchun yangi bo'lgan narsa ikkinchi o'qituvchi uchun yangi bo'lmaydi. Yangilik har doim aniq tarixiy ifodaga ega bo'ladi. Aniq vaqtda yaratilib, aniq tarixiy bosqichda masalalarni yechib, yangilik qisqa vaqt ichida ko'pchilik mulki, odatiy tusga kiradi. Masalan, Ya. A Kaminskiyning sinf bo'lib dars o'tish ta'lim tizimi Ibn Sinoning provoskov tartib nazariyasi, A Avloniy Munavvar Qori va boshqalarning o'z davrining buyuk g'oyalari bo'lib qoladi, ularni o'sha vaqtni hisobga olmay qarab chiqish vahatto baholash mumkin emas. Hususiy yangilik - nisbatan yangilikning turlaridan biri. Hususiy yangilik mahsulot elementlaridan biri kundalik zamonaviylashtirilishi tartibida yangidan ishni anglatadi. Jism qandaydir bir jihatdan yangilanadi. Hususiy yangiliklar to'planib borishi uning to'la o'zgarishga absoyut yangilik va radikal yangilik kiritishsiz olib kelishi mumkin.

Shartli yangilik ilgari bo'lgan elementlarning g'ayri oddiy birlashuvi va natijasida hosil bo'ladi. Bu o'z - o'zidan yangilik emas, lekin bu qo'llanishida murakkab va ilg'or va qayta tuzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, sub'ektiv yangilik ko'rsatiladi, bunda ushbu sub'ek uchun ob'ekt yangi bo'ladi predmet va hodisalar biro dam uchun umuman yangi bo'lishi, ushbu jamiyat uchun yangi ko'rsatgich va boshqa jamiyat uchun yangi bo'lamlasligi mumkin.

Yangilikning muhim tamoni, u ushbu ob'ektning ilgarisidan nimasi bilan farq qilishini ko'rsatilib beradi. Masalala, taklif etilayotgan o'qitish metodikasi ilgari ma'lumotlariga ko'ra quyidagi qismlar ajratiladi: Ma'lum bo'lganini boshqa ko'rinishdagi ko'rinish (keltirish) yangi amalda yangilik yo'q bo'lib - rasman yangilik.

Ilgari ma'lim bo'lganga aniqlik kiritish. Ilgari ma'lum bo'lganini muhim elementlar bilan to'ldirish. Sifali yangi ob'ekt yaratish.

Yangilik - bu ayni vosita, innovasiya bu esa ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadi. Innovatikada bu yangiliklar kiritishning hayot sikli tushunchasida aksini topadi.

Birinchi blok (to'plam) - pedagogikada yangilik yaratish bloki shu yerda pedagogikada yangi pedagogik yangiliklarni klassifikatsiyalash, yangilik yaratishga shartlari, yangilik mezonini yangilikning uning o'zlashtirish va foydalanishga tayyorlash o'lchovi, odatlar va navotirlik pedagogik bosqichlari yangilik ijodkorlari kabi kateqoreyalar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga pedagogika yangilik kateqoreyasi chegarasi nazariyasini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Bu tushunchalarni pedagogik neologiya o'rganadi.

Ikkinchi blok - yangilik baholash o'zgartirish va tushunish bloki:

Yangilikni o'zlashtirish jarayoni turlari va baholash, pedagogik

hamkorlik pedagogika kosenator va innovation muhit pedagogik birlashmaning yangilikka baholash va qabul qilishga tayyorlash.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Karimov I.A Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent "O'zbekiston" 1997
2. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi muallif. SH. Karimov va boshqalar. Toshkent "Sharq" 1999
3. Mavlonova.R,RaxmonqulovaN.Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent "O'qituvchi" 2006